

HUDUDLARDA AHOLINI O‘ZINI O‘ZI BAND QILISHNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Kadirov Nozim Osimxanovich
Sog‘liqni saqlash vazirligi xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholini ish bilan bandligini ta’minlash bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalari o‘rganilgan, ishsizlikni keltirib chiqaradigan omillar yoritib berilgan. Mamlakatimizda aholining ish bilan bandligi va ishsizlik darajasi, ularning o‘zgarish tendensiyalari hamda aholi bandligi sohalar bo‘yicha tahlil qilingan. Shuningdek, aholini ish bilan bandligini ta’minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yer, yer solig‘i, ko‘chmas mulk, o‘zini o‘zi band qilgan shaxs, faoliyat, ijtimoiy soliq, “Soliq” mobil ilovasi, imtiyoz, pensiya, ish staji, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish: Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, ijtimoiy o‘zgarishlarga o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga mehnat daromadi olishga yo‘naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olish, mehnat staji hisobga olinishi va rag‘batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va ishlar (xizmatlar) buyurtmachilari o‘rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar shartnoma shartlariga yoki ish muomalasi odatlariga asoslanmoqda. Ular bilan ishlar (xizmatlar) buyurtmachisi o‘rtasidagi ish muomalasi odatlariga asoslangan o‘zaro munosabatlarda og‘zaki shaklda bitim (shartnoma) tuzishga yo‘l qo‘yiladi. Bu esa iqtisodiyotda xufiyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi:

Hozirgi davrda soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida budjet daromadlarini oshirish, soliqqa tortish ma‘muriyatchiligini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish qaraladi. Mol-mulk va yer soliqlar davlat budjetining asosiy qismini tashkil etmasada biroq davlat budjetini shakllantirishda o‘zining o‘rniga ega. Yer va molmulkn soliqqa tortish tizimi azaldan mavjud bo‘lib iqtisodiy soha olimlari uni soliqqa tortish bo‘yicha turli xil qarashlarini ifoda etib kelganlar.

Fiziokratlar ta'limotining asoschisi Fransua Kene (1694–1774) Davlat xarajatlarini qoplashning yo'nalishidan

- yer egalaridan olinadigan soliq

- uy yoki ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarin soliqqa tortish orqali davlat xarajatlarini qoplash yo'llaridan biri sifatida e'tirof etdi.

Fransua Kene (1757 y.) bunday daromad olish usuli soliq to'lovchi uchun ortiqcha harajat va og'ir mehnatga asoslanmagan foydani tashkil qilishini ta'kidlab o'tdi.

Amerikalik siyosiy iqtisodiy soxa bo'yicha olim Gerbert Saymon(1943y.) iqtisodchi olim Dik Netser(1966y.) ijaraga berilgan ob'ektlar uchun ularning yer va ko'chmas mulk uchun soliq summasini ularning haqiqiy ijara qiymatidan olinishi ko'chmas mulkka bo'lgan talabni va ijara haqi to'lovlarini pasayishiga xizmat qiladi deb ta'kidlab o'tdi.

Rossiyalik olimlardan Drojjina I.A. o'zining qarashlarida yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini birlashtirib ko'chmas mulk solig'i joriy etishni taklif qilgan.

Mixina Ye.V. o'zining qarashlarida ko'chmas mulk solig'ini joriy qilishning mahalliy budjet daromadlari bazasiga ta'sirini tahlil qilib tegishli tavsiyalarni bergan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlarning qarashlarida axolining ijtimoiy kam daromad oladigan qatlami yetarlicha inobatga olinmagan deb hisoblaymiz.

Loginova T.A. o'zining ilmiy qarashlarida ko'chmas mulkni joriy qilish va uni amaliyotga joriy qilishda aholining ijtimoiy qatlamini inobatga olish lozimligini qayd qilib o'tgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda bugungi kunda o'zini o'zi band qilgan shaxslar va ular faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini ko'rib chiqsak. O'zini o'zi band qilgan shaxslar deganda mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar tushuniladi. Mehnatga layoqatli yoshdagi shaxs o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olinganidan keyin o'zini o'zi band qilgan shaxs maqomini oladi. O'zini o'zi band qilgan shaxslar amalga oshiradigan faoliyat turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qarori bilan tasdiqlangan.

Ushbu ro'yxatga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-sonli Farmoni bilan "Hamshiralik ishi" hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 806-sonli qarori bilan "Nomoddiy madaniy

meros ob'ektlarini (dorboz, askiya va lapar) asrash va ulardan foydalanish (madaniyat markazlari tarkibida faoliyat yuritayotgan shaxslar bundan mustasno)" faoliyat turlari kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentyabrdagi 595-son qaroriga asosan "Uy sharoitida xonaki tovuqlarni yetishtirish va ko'paytirish" faoliyat turi kiritildi. Bundan tashqari, 2021-yil 7-iyundagi PQ-5138-son qaror bilan issiqxonalar va uy-issiqxona majmualarida mahsulot yetishtirayotganlarga PQ-4742-son qarordagi imtiyozlar va shart-sharoitlar tatbiq etiladigan bo'ldi.

Shuning bilan birgalikda, 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-sonli qaror bilan 2022 yil 1 fevraldan boshlab jismoniy shaxslarga o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida o'z xonadonida baliq yetishtirishni yo'lga qo'yishga ruxsat berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 iyuldagi PQ-311-sonli qaroriga asosan 2022 yil 1 sentyabrdan 2024 yil oxiriga qadar yo'lovchilarni haydovchidan tashqari to'rttadan ortiq bo'lmagan o'rindiqlarga ega bo'lgan yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga kiritildi.

Mamlakatimiz Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-noyabridan quyidagi faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari bilan shug'ullanadigan fuqarolar o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxati tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida" Nizom o'zini o'zi band qilgan shaxslarni xabar berish tartibida ro'yxatdan o'tkazish va faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi. O'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olinganlik faktini tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) berilgan holda, maxsus mobil ilova yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabar qilish tartibida amalga oshiriladi.

Soliq organlarida o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish bepul va masofadan turib amalga oshiriladi. Xohlovchilar buni "Soliq" mobil ilovasidan foydalangan holda yoki my.soliq.uz saytida jismoniy shaxslarning shaxsiy kabineti orqali amalga oshirishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tish uchun o'zini o'zi band qilmoqchi bo'lgan jismoniy shaxs so'rovnoma to'ldirishi lozim bo'ladi. Bunda so'rovnoma o'zini o'zi band qilgan shaxs tomonidan maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali elektron shaklda mustaqil ravishda, davlat soliq xizmati organiga kelganda esa soliq organi xodimi tomonidan to'ldiriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra¹, mamlakatimizda, 2022 yil 16 fevral holatiga o'zini o'zi band qilganlar 1 324 031 nafarga yetdi. Joriy yil 1 yanvardan 16 fevralga qadar 132 047 nafar fuqaro o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tib, bu borada Farg'ona (20295), Samarqand (18988), Andijon (13901), Jizzax (10647) va Toshkent viloyati (10362) yetakchilik qilmoqda.

Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha 50691;

Sanoat yo'nalishi bo'yicha 32707;

Maishiy xizmatlar bo'yicha 23641;

Ijtimoiy yo'nalish bo'yicha 15183;

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha 7551;

Axborot-kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha 2274 nafar shaxs o'zini o'zi band qildi.

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirishning quyidagi o'ziga xos ijobiy jihatlari mavjud:

1. Erkin faoliyat. O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish avtomatik tarzda mutlaqo tekin amalga oshiriladi. Ushbu shaxslar faoliyatini cheklanmagan muddatda amalga oshirishi va hohlagan vaqtda to'xtatishi mumkin. Faoliyatni to'xtatishda hech qanday hujjat talab qilinmaydi, tekshirishlar amalga oshirilmaydi. Bir vaqtning o'zida ber nechta faoliyat turi bilan shug'ullanish mumkin.

Yuqoridagilar bilan birgalikda asosiy ish joyiga ega (mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan) jismoniy shaxs, bir vaqtning o'zida o'zini o'zi band qilganlar faoliyati bilan ham shug'ullanishi mumkin. Asosiysi, asosiy ishdagi faoliyat turi o'zini o'zi band qilish uchun ruxsat berilgan faoliyat turlari ro'yxatiga kirmagan bo'lishi kerak.

Yuqoridagilardan tashqari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar bajarilgan ishlar uchun xorijdagi norezidentlardan to'lovlarni O'zbekiston banklaridagi hisob raqamiga xorijiy valyutada qabul qilish mumkin. Bunda kelib tushgan mablag'larni o'z bankida xorijiy valyutada naqd qilib olish va undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish mumkin.

Ixtiyoriy tarzda yiliga bir marta minimal soliq. Soliq kodeksining 408-moddasiga asosan o'zi band qilgan shaxslar ixtiyoriy tartibda yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida (2021 yil 1 sentyabr holatiga 270 ming so'm) ijtimoiy soliq to'laydi. Belgilangan miqdordagi ijtimoiy soliqni to'lanishi o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat staji hisoblanishiga asos bo'ladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar maxsus mobil ilova orqali quyidagi imkoniyatlardan foydalanishi mumkin:

buyurtmalarni va ko'rsatilgan xizmatlar (tovarlar) uchun to'lovlarni qabul qilish;

¹ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatishda (tovarlarni sotishda) elektron hisob-kitob fakturalarni taqdim qilish;

mobil ilova yordamida ixtiyoriy asosda daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish hamda ushbu ma'lumotlardan keyinchalik, shu jumladan, kredit olish va (yoki) soliqlarni hisobdan chiqarish maqsadida foydalanish va boshqalar.

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishga doir talablar:

- o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan shaxslar o'z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishga haqli emas;

- o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan shaxslar ish beruvchiga ega bo'lishga haqli emas.

Ushbu talablarga rioya etilmagan taqdirda, o'zini o'zi band qilgan shaxslar o'zini o'zi band qilgan shaxslar maqomini yo'qotadi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar ixtiyoriy tartibda o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtidan qat'i nazar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ijtimoiy soliqni ixtiyoriy tartibda to'laydi. Ushbu summa to'lig'icha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yo'naltiriladi va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi. hamda ularga bir yillik mehnat stajiga ega bo'ladilar. O'zini o'zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tatbiq etilmaydi. Bunda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyatidan tashqari olingan daromadlariga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq solinadi. Belgilangan miqdordagi ijtimoiy soliqni to'lanishi o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat staji hisoblanishiga asos bo'ladi.

Agar o'zini o'zi band qilgan shaxs o'z mehnat faoliyatini to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar davlat soliq xizmati organiga faoliyatni to'xtatish to'g'risidagi bildirishnomani maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali yuboradi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan o'zini o'zi band qilgan shaxsning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risidagi bildirishnoma o'zini o'zi band qilgan shaxs mehnat faoliyatini amalga oshirmaydigan davrda ijtimoiy soliqni to'lashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar maxsus mobil ilova orqali quyidagi imkoniyatlardan foydalanishi mumkin:

buyurtmalarni va ko'rsatilgan xizmatlar (tovarlar) uchun to'lovlarni qabul qilish;
yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatishda (tovarlarni sotishda) elektron hisob-kitob fakturalarni taqdim qilish;

mobil ilova yordamida ixtiyoriy asosda daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish hamda ushbu ma'lumotlardan keyinchalik, shu jumladan, kredit olish va (yoki) soliqlarni hisobdan chiqarish maqsadida foydalanish;

o'zini o'zi band qilgan shaxslarning tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) reklama qilish;

ko'rsatilayotgan xizmatlar (tovarlar) sifatini baholash va iste'molchilar tomonidan fikr-mulohazalar bildirilishi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat-kassa texnikasi va bank plastik kartochkalari orqali hisob-kitoblar bo'yicha to'lov terminallaridan foydalanadi hamda tijorat banklarida hisobvaraqlari ochishi mumkin.

Maxsus mobil ilova orqali daromadlar va xarajatlar hisobini yuritayotgan o'zini o'zi band qilgan shaxslarga tijorat banklari tomonidan kreditlar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartib asosida beriladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotnoma o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun norezidentlardan chet el valyutasidagi to'lovlarni tijorat banklaridagi hisobvaraqlariga kirim qilish uchun asos hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatuvchi (ishlar bajaruvchi) o'zini o'zi band qilgan shaxslar (frilansing) quyidagi huquqlarga ega:

xorijdagi norezidentlar bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslardan ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun xorijiy valyutada O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlarga Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga tegishli axborot kiritmagan holda, O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlarga xorijiy valyutada to'lov qabul qilish;

bitim (oferta) to'g'risida ommaviy taklif qabul qilish yoki elektron xabarlar almashish yoxud hisobvaraq-fakturalar (invoys) qo'yish, shu jumladan elektron shaklda qo'yish orqali kontrakt tuzmasdan, chet el jismoniy va yuridik shaxslariga xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish).

O'zini o'zi band qilgan shaxs O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ishsiz shaxslarga to'lanadigan ishsizlik nafaqasi hamda tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirishdan o'tish davrida ushbu mablag'lar hisobidan stipendiya olishi mumkin emas.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarga beriladigan imtiyozlar

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirish davri pensiya olish huquqiga ega bo'lingan paytdan e'tiboran yoshga doir pensiyani hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olish davri, mehnat faoliyati bu davrda o'zini o'zi band qilish tartibida amalda bajarilganligi yoki bajarilmaganligidan qat'i nazar, pensiyani tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi.

Mahalliy mehnat organlari o'zini o'zi band qilgan shaxslarga imtiyozli mikro kreditlar ajratish uchun tijorat banklariga tavsiyalar beradi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan kasbga o'qitish markazlarida (kasb-hunar ta'limi muassasalarida) qisqa muddatli kasbga o'qishni, shuningdek tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qishni bepul o'tashi mumkin.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarga imtiyozli ijaraga berish uchun mehnat asbob-anjomlari, shaxsiy himoya vositalari va ish kiyimi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasining mablag'lari hisobidan olinadi.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida yangi paydo bo'ladigan kasblarga nisbatan uning natijasida yuzaga keladigan ishsizlik darajasi yuqoriroq bo'ladi. Shunday ekan, davlat va nodavlat sektorlarda yuqori malaka talab etmaydigan ish o'rinlarini ko'paytirish, xususan o'z-o'zini band qilishni yanada rag'batlantirish kerak.

A aholini tadbirkorlik salohiyatini kengaytirish, har bir tuman, shahar, mahalla extiyojidan va an'analaridan kelib chiqib, ularni kasbga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda yetarli darajada foydalanilmayotgan aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishning oson yo'llaridan biri hisoblangan o'zini o'zi band qilish tizimii keng joriy qilish va shu faoliyat turlarini ko'paytirish lozim. Bu esa o'z navbatida mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kene, F. Fiziokratiy. Izbrannyye ekonomicheskie proizvedeniya/ F. Kene, A.R.J. Tyurgo, P.S. Dyupon de Nemur. [tarj. frans., angl., nem.] – M.: Eksmo, 2008. – 1200b.
2. Drojjina I.A. Formirovani sistem nalogooblojeni ob'ektov nedvijimosti na osnove differensirovannog podxoda. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati.-O.:2005.-b.12.
3. Mixina Ye.V. Nalog na nedvijimost i perspektivy yego razvitiya v regione. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. avtoreferati.-M.:2005y.b.-6.
4. Loginova T.A. Strategiya razvitiya nalogooblojeniya nedvijimogo imuststva v Rossiyskoy Federatsii. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. avtoreferati.-M.:2018y.-b. 7
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.